



BMTNING "BOLA HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYASI"

Farog'at Pirnazarova

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi va uning bolalar tarbiyasi va rivojlanishiga ta'siri o'rganilgan. Konvensiyaning asosiy tamoyillari va ularning amaliyotda tatbiq etilish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bola huquqlarini ta'minlashga oid tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *Bola huquqlari, Konvensiya, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi faoliyati, bolaning fikri, ijtimoiy moslashuv, diskriminatsiyasiz ta'lim, pedagogik yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается применение Конвенции о правах ребёнка в организациях дошкольного образования, а также её влияние на воспитание и развитие детей. Анализируются основные принципы Конвенции, включая право детей на образование, защиту, свободное выражение мнения и равные возможности, а также способы их реализации на практике. Кроме того, на основе результатов исследования представлены рекомендации по обеспечению и защите прав ребёнка в организациях дошкольного образования.*

Ключевые слова: *Права ребёнка, Конвенция, дошкольное образование, деятельность воспитателя, мнение ребёнка, социальная адаптация, образование без дискриминации, педагогический подход.*

Abstract: *This article examines the implementation of the Convention on the Rights of the Child in preschool educational institutions and its impact on children's upbringing and development. The main principles of the Convention and the methods of their application in practice are analyzed. The research findings also include recommendations for ensuring children's rights in preschool educational institutions.*

Keywords: *Children's rights, Convention, preschool education, educator's activity, child's opinion, social adaptation, non-discriminatory education, pedagogical approach.*

Kirish **Bola huquqlari to'g'risida konvensiya** — [bolalar](#) huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to'la va birinchi hujjat. [BMT Bosh Assambleyasi](#) tomonidan 1989-yil 20 noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konvensiya 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi. Deklaratsiya „Insoniyat o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur“ deb e'lon qilgan edi. Konvensiya esa ushbu Deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalar huquqlari to'g'risidagi qonunlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya t. k. dunyoning barcha



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balog‘at yoshi birmuncha erta belgilangan bo‘lmasa, 18 yoshga to‘lmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya t. k. insonning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquklari yig‘indisidan iborat. U bolalar o‘zining axloqiy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarini erkin rivojlantirishi uchun boshqa narsalardan tashqari sog‘lig‘i va atrof muhitning xavfsizligi, tibbiy yordamga ega bo‘lish va ovqatlanish, kiyim-kechak, turarjoy xususidagi minimal normalar bilan ta‘minlanishi zarurligini talab etadi. Konvensiyaga kura, bola o‘zining kamol topishida o‘zi faol ishtirok etish, o‘z fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini ta‘minlaydi. Konvensiya bolaning yashash va sog‘lom rivojlanish huquqiga, farzandlikga olish bilan bog‘liq huquqqa, noraso bolalar va qochoq bolalar, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning huquqlariga oid qoidalarni o‘z ichiga oladi, bolalarga g‘amxo‘rlik qilish va ularni himoya qilishda oila va otaonaning birinchi darajali roli, bolalarga yordam ko‘rsatish borasidagi majburiyatini tan oladi. Bolalarni kamsitmaslik — [Konvensiyaning](#) muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bolalar irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e‘tiqodi, millim, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, sog‘lig‘ining ahvoli otaonasi yoki qonuniy vasiysi yoxud qandaydir boshqa holatlardan qati nazar, bironbir kamsitishlarsiz o‘z huquqlaridan foydalanishi kerak. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya t. k. 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Unga [O‘zbekiston Respublikasi](#) 1992-yil 9 dekabrda qo‘shilgan.

Konvensiyani [ratifikatsiya](#) qilgan yoki unga qo‘shilgan davlatlar uni bajarish yuzasidan tadbirlar bo‘yicha Bola huquqlari qo‘mitasiga muntazam ravishda milliy ma‘ruzalar yuborib turadi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu Konvensiyani bajarish bo‘yicha birinchi milliy ma‘ruza 1997-yilda tayyorlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining qo‘shma qarori, 21.02.2024 yildagi 4068-IV-sonli buyruq asosida BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Beshinchi davriy ma‘ruzasini ko‘rib chiqish yakunlari yuzasidan BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini amalga oshirish yuzasidan 2024 — 2027-yillarga mo‘ljallangan milliy harakatlar rejasi ishlab chiqildi.(1) Bugungi globallashuv va inson huquqlarini ta‘minlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlar zamirida yosh avlod — bolalarning huquqlarini tan olish, himoya qilish va rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” bolalar huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilishning eng muhim hujjati hisoblanadi. Ushbu Konvensiya bolalarni jamiyatning teng huquqli a‘zosi sifatida tan olib, ularning manfaatlarini himoya qilish, rivojlanish, ishtirok va erkinlik tamoyillariga asoslanadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ushbu Konvensiyadan foydalanishning huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari va metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Bola har bir jamiyatning kelajagidir. Shu boisdan ham bolalarning huquqiy himoyasi, ularning to‘laqonli yashashi,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasi uchun zarur sharoitlar yaratish har qanday davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan “Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiya” butun dunyoda bolalarning huquqlarini himoya qilishda muhim huquqiy asos bo’lib xizmat qilmoqda. (2) O‘zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyani 1992-yilda ratifikatsiya qilgan bo’lib, bugungi kunga kelib maktabgacha ta’lim tizimida bu hujjat asosida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bola huquqlari to’g’risidagi Konvensiyaning mazmun-mohiyati. Konvensiyada bola shaxs sifatida e’tirof etiladi va unga tegishli bo’lgan huquq va erkinliklar aniq belgilab qo’yiladi. Bu huquqlar ichida quyidagilar alohida o‘rin egallaydi:

- Hayotga bo’lgan huquq; Ismi va fuqarolikka ega bo’lish huquqi;
- Oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; Ta’lim olish huquqi;
- Sog’liqni saqlash, ijtimoiy ta’minotdan foydalanish huquqi;
- Shaxsiy fikrga ega bo’lish va uni erkin ifoda etish huquqi;
- Zo‘ravonlik, ekspluatatsiya va diskriminatsiyadan himoya qilinish huquqi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Konvensiyadan foydalanish yo‘llari.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bola shaxsini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois, bola huquqlarini himoya qilish bu tizimda ham dolzarb masalalardan biridir. Konvensiya tamoyillarini amalga oshirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: Tarbiyaviy jarayonlarda huquqiy bilim berish – Tarbiyachilar bolalarga sodda, ularning yoshi va tushunish darajasiga mos shaklda huquqiy bilimlar berishlari kerak. Masalan, o‘z huquqlari, o‘zgalarga zarar yetkazmaslik, bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo’lish kabi tushunchalarni o‘yin, ertak, rasm, she’rlar orqali yetkazish mumkin. O‘yin faoliyatida huquqiy tarbiya – Bola o‘z huquqlari va burchlarini o‘yin orqali anglaydi. Rol o‘yinlari (oilaviy, kasbga oid, ijtimoiy rollar) orqali ular hayotiy vaziyatlarni tushunishlari va o‘zlarini ijtimoiy muhitda qanday tutish kerakligini o‘rganadilar. (3) Tarbiyachilarning huquqiy savodxonligi – Maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar Konvensiya mazmuni bilan yaxshi tanish bo’lishlari, o‘z faoliyatida ushbu hujjatga tayangan holda harakat qilishlari lozim. Bu borada seminar-treninglar, o‘quv kurslari tashkil etilishi foydalidir. Bola shaxsiga hurmat – Har bir bolaga individual yondashuv, uning fikriga quloq tutish, shaxs sifatida qadrlash orqali bola huquqlarini amalda ta’minlash mumkin. Bolaga berilgan e’tibor, mehr-muhabbat uning ijtimoiylashuviga, o‘zini erkin va xavfsiz his qilishiga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda Konvensiya asosida olib borilayotgan ishlar.

O‘zbekiston Respublikasi bola huquqlarini himoya qilish borasida ko‘plab qonuniy asoslar yaratgan. Jumladan, “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari to’g’risida”gi kodeksi va boshqa normativ hujjatlar Konvensiya prinsiplariga asoslangan. Shuningdek, “Takomillashtirilgan ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, “Bola huquqlari to’g’risidagi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Konvensiya”ga mos holda ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda har bir bolaning individual rivojlanishi, sog‘lomlashtirish, ta’lim-tarbiyasi va shaxsiy erkinligi inobatga olingan.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g‘amxo‘rlik va yordam huquqiga egadirlar, deb e’lon qilganligini eslatib, jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a’zolari, ayniqsa, bolalar o‘z zimmasiga to‘liq oladigan bo‘lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta’minlanishi lozim ekanligiga ishonch hosil qilgan holda, bolaning shaxsi sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda kamoloti uchun u oila g‘amxo‘rligida, baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o‘sishi zarurligini e’tirof etib, bola jamiyatda mustaqil hayotga to‘la tayyorlanishi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida e’lon qilingan g‘oyalar ruhida, ayniqsa, tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tenglik va birdamlik ruhida tarbiyalanishi lozimligini hisobga olib, bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi 1924 yilgi Bola huquqlari Jeneva deklaratsiyasida va 1959 yil 20 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘zda tutilganligini va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro paktda (jumladan, 23- va 24-moddalarda), Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro paktda (jumladan, 10-moddada), shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar hamda bolalarning farovonligi masalalari bilan shug‘ullanuvchi xalqaro tashkilotlarning Nizomlari va tegishli xujjatlarida e’tirof etilganligini e’tiborga olib, Bola huquqlari deklaratsiyasida ko‘rsatib o‘tilganidek, “bola, agar u jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetishmagan bo‘lsa, maxsus ravishda muhofaza va g‘amxo‘rlikka, binobarin, tug‘ilguncha va tug‘ilgandan keyin ham munosib darajadagi huquqiy himoyaga muhtoj” ekanligini e’tiborga olib, Ijtimoiy va huquqiy tamoyillar to‘g‘risidagi deklaratsiyaning bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Balog‘atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari (“Pekin qoidalari”) va Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to‘g‘risidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib, jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og‘ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e’tiborga muhtoj ekanliklarini e’tirof etib, bolaning himoya qilinishi va uyg‘un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an‘analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini e’tirof etadilar.

Muammolar va takliflar.

Ba’zida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola huquqlari bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmagan kadrlar faoliyat yuritishi, ota-onalarning ham bu boradagi savodxonligining pastligi Konvensiya tamoyillarining to‘laqonli amalga oshishiga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Har bir tarbiyachiga Konvensiya asoslari o‘rgatilishi;
Ota-onalar bilan hamkorlikda huquqiy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilishi;
Bolalar uchun sodda tilda yaratilgan huquqiy ertaklar, risolalar nashr etilishi
lozim. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning mohiyati Konvensiya 54 moddadan iborat bo‘lib, bolalarning yashash, rivojlanish, ishtirok va himoya huquqlarini kafolatlaydi. Asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. Diskriminatsiyaga yo‘l qo‘ymaslik – har bir bola irqi, jinsi, tili, dini yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qattiq nazar teng huquqlarga ega bo‘lishi kerak
2. Bolaning manfaatlar ustuvorligi – har bir qaror bolaning manfaatlarini inobatga olgan holda qabul qilinishi lozim.
3. Yashash va rivojlanish huquqi – har bir bolaga hayot va to‘laqonli rivojlanish sharoitlari yaratilishi zarur.
4. Fikr bildirish va ishtirok etish huquqi – bola o‘z fikrini erkin bildirish va uni eshitish huquqiga ega.

Ushbu tamoyillar maktabgacha ta’lim tizimida bolaga nisbatan pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvda muhim mezon hisoblanadi. Maktabgacha ta’limda Konvensiya prinsiplarining amaliy qo‘llanilishi Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun huquqiy ongni shakllantirish — tarbiyaning muhim tarkibiy qismidir. Konvensiya prinsiplarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. O‘quv-tarbiyaviy faoliyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish Maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqlar to‘g‘risidagi bilimlarni sodda, tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazish zarur. Bu maqsadda huquqiy ertaklar, rolli o‘yinlar, suhbatlar va sahnalashtirish usullaridan keng foydalaniladi.

2. Tarbiyachining huquqiy savodxonligi Tarbiyachilar Konvensiya moddalari va bolalarning asosiy huquqlari haqida puxta bilimga ega bo‘lishlari shart. Bu esa bolaga individual yondashuvni ta’minlash va uning huquqlariga hurmat bilan qarashga yordam beradi.

3. Fikr erkinligi va ishtirokini ta’minlash Konvensiyaning 12-moddasi asosida bolalarning fikrini eshitish, ularning o‘z tanlovi asosida faoliyatda qatnashishlariga imkon berish muhim. Pedagoglar har bir bolaning fikriga e’tiborli bo‘lishi, ularni faol qaror qabul qilishga jalb qilishi lozim

4. Zo‘ravonlik va ekspluatatsiyaga qarshi muhit yaratish
Konvensiyaning 19-moddasiga muvofiq, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning jismoniy, ruhiy va emotsional zo‘ravonlikdan himoyalangan muhitda bo‘lishi zarur. Bu jarayonda tarbiyachilar ijobiy intizom yondashuvlaridan foydalanishlari lozim.

5. Ota-onalar bilan hamkorlikda huquqiy tarbiya Huquqiy tarbiya faqat bolalar bilan cheklanmasligi, balki ota-onalarni ham qamrab olishi kerak. Oilada bolaning huquqlariga rioya qilinishini ta’minlash maktabgacha ta’lim muassasasi va oilaning hamkorligiga bog‘liq.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘zbekistonda bola huquqlari Konvensiyasiga asoslangan holda quyidagi muhim qonuniy asoslar ishlab chiqilgan:

“Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008-yil);

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun (2020-yilgi yangi tahrir);

“Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil);

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (maktabgacha yoshdagi bolalar uchun).(4)

Ushbu hujjatlar Konvensiya talablariga mos tarzda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda bola manfaatlarini ta‘minlash, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish asosiy mezon sifatida qaraladi. O‘zbekistonda Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning bajarilishini tashkil etish masalalari bo‘yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi Toshkentda bo‘lib o‘tdi.(6) Davlat va nodavlat tashkilotlari vakillari hamda xalqaro tashkilotlar mutaxassisleri ushbu sohadagi ustivor masalalarni muhokama qildilar. Shuningdek, bu yil Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (BHK) qabul qilinganligining 30 yilligi nishonlanadi. BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi dunyoda eng ko‘p davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan BMT bitimi bo‘lib, u butun jahondagi bolalarning hayotini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda bola huquqlarini ta‘minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida qaror qabul qildi. Yig‘ilish ishtirokchilari BMT Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini tadbir etish borasida O‘zbekiston hukumati tomonidan ko‘rsatilayotgan siyosiy irodani va izchillikni alohida ta‘kidlab o‘tdilar. Shu bilan birga ular bola huquqlari monitoringi hamda bolalarning o‘zi hamda ularning nomidan taqdim etilayotgan shikoyatlar bilan ishlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish zarurligiga urg‘u berdilar. Boshqa masalalar bilan bir qatorda, kengash a‘zolari ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan besh yillik harakat rejasini ishlab chiqish jarayonini muhokama qildilar. “Hukumat ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun oiladagidek muqobil sharoitlarni yaratish bo‘yicha rejalar ishlab chiqayotganligi quvonarli holatdir. Oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish uchun ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning de-institutsializatsiyasi hamda ular uchun oila ko‘rinishidagi muqobil sharoitlarni yaratish bo‘yicha harakat rejasini ishlab chiqish lozim. Buning uchun bolalarni katta muassasalarga joylash amaliyotini o‘zgartirishga, uning o‘rniga bolalarni o‘z oilalaridan ajratishning oldini olishga qaratilgan mahalliy hamjamiyat tashabbuslariga e‘tibor qartish lozim,” – dedi UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sasha Graumann. Ijtimoiy jihatdan zaif bo‘lgan bolalarning ehtiyojlarini ta‘minlash borasidagi yana bir muhim tavsiya bolalar ijtimoiy himoyasiga yo‘naltirilayotgan moliyalashtirish qamrovini kengaytirishdir. Kam daromadli oilalarni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy islohotlar davom etayotgan pallada muhim ahamiyat kasb etadi. Yig‘ilish ishtirokchilari bolalarning ijtimoiy himoyasi ustivor masalalar qatoridan o‘rin olishi lozimligini ta‘kidladilar.



Metodik yondashuvlar

Maktabgacha ta’limda bola huquqlari bilan bog‘liq faoliyatlarni samarali tashkil etishda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Rolli o‘yinlar – bolalarda huquqiy holatlarni tasavvur qilishga yordam beradi;

Suhbat va savol-javoblar – bolaning huquqlar haqidagi tushunchasini shakllantiradi;

Rasmlar, kollajlar, videoroliklar – vizual materiallar orqali ongli ta’sirni kuchaytiradi;

Huquqiy kunlar, tadbirlar – bolalarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim omil.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Bola huquqlari to‘g‘risidagi

Konvensiya” asosida faoliyat yuritish bolalarning sog‘lom, erkin va huquqiy ongli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonda bolalarning huquqlariga hurmat bilan yondashish, ularning fikrini tinglash va har bir qarorda bolaning manfaatini ustuvor deb bilish orqali maktabgacha ta’lim tizimi yanada demokratik va samarali bo‘lishi mumkin. Konvensiyaning amaliy qo‘llanilishi pedagoglar, ota-onalar va jamiyatning umumiy mas’uliyatiga asoslanadi. “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” – bolalarning shaxs sifatida tan olinishi, ularning farovon yashashi, ta’lim olishi va erkin rivojlanishi yo‘lida xalqaro huquqiy asosdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu hujjatdan foydalanish nafaqat qonuniy talab, balki har bir bola kelajagiga sarmoya bo‘lishi lozim. Bola huquqlarini himoya qilish orqali biz sog‘lom, baxtli va huquqiy ongli avlodni voyaga yetkazamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O‘zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi /Mualliflar jamoasi: A.Saidov, F.Bakayeva, K.Arslanova va boshq. Mas’ul muharrir A.X.Saidov. –T.: “O‘zbekiston”, 2020.

2. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar: to‘plam/O‘zbekcha nashrining mas’ul muharriri A.X.Saidov. –Toshkent: «Adolat», 2004. – 520b.

4. Mo‘minov Abdulxay Rashidovich. Tillabayev Mirzatillo Alisherovich. Bola huquqlari. Darslik. Toshkent-2014

5. YUNESKO ning xalqaro me‘yoriy hujjatlari. To‘plam. /Mas’ul muharrir L.Saidova. – T.: Adolat, 2004. -304 b.

6. LexUz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz